KONSEPTNING LINGVOMADANIY HODISA SIFATIDA O‘RGANILISHI

Xalimova Firuza Rustamovna, *SamDChTI “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi dotsenti*

Annotasiya. Konsept atama sifatida talqin qilinmasa, “tushuncha” so‘ziga sinonim tariqasida ishlatilishi mumkin. Atama darajasiga chiqqan konsept o‘ziga xos “kalit so‘z” maqomini olib – muallifning ma’lum bir ilmiy yo‘nalishga qarashli ekanligiga ishora qiladi. Aksar hollarda konsept kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik sohasiga oid atama sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: mental hodisa, madaniy konsept, milliy xarakter, obraz

Abstract. A concept can be used synonymously to the word “notion” if not interpreted as a term. The concept, which has reached the level of the term, takes the status of a specific “keyword” – a reference to the fact that the author is attached to a certain scientific direction. In most cases, the concept is interpreted as a term related to the fields of cognitive and cultural linguistics.

Keywords: mental phenomenon, cultural concept, national character, image.

Lingvokognitologiyada konsept - “ongimizning mental birliklarini va psixik manbalarini, inson tajribasini aks ettiruvchi axborot tizimlarini izohlovchi atamadir; xotiraning operativ mazmunini, mental leksikonini, inson ongida mavjud olam manzarasining konseptual tizimini aks ettiruvchi opereativ birlikdir” [14: 90; 5]. Bir so‘z bilan aytganda, konsept–jadval, ssenariiy, freym shaklida namoyon bo‘luvchi har qanday mazmunni tizimlashtiruvchi vositadir [7: 19–35]. Tabiiy til, faqatgina, tadqiqotchiga ongda kechayotgan jarayonni aks etirib beruvchi qurol vositasini bajaradi, chunki, A. Vejbiskaya ta’kidlaganidek, “inson fikriga so‘z orqali yetib boramiz (uni ifoda qilish uchun so‘zdan boshqa vosita topilgani yo‘q)” [8: 293].

Lingvomadaniy jihatdan konsept lisoniy voqelangan ma’lum madaniyatga xos mazmundir yoki boshqacha aytganda, madaniyat “tilining” semantik birligidir [19: 81]. Lingvokonseptni tushunish uchun ma’lum bir o‘ziga xos fazoviy makonni tushunish lozim. Demak, lingvokonsept faqatgina muayyan bir millatga tegishli



bo‘lgan tushunchalarni bildiradi.

Lingvomadaniyatshunoslik etnik mentalitetning lisoniy vositalarda namoyon bo‘luvchi til va madaniyatning o‘zaro munosabatini tadqiq qiladi [19: 78; 13: 12]. Natijada lingvomadaniyatshunoslarning qiziqishi mental birliklar xususiyatini o‘rganishga yo‘naltirilib, ma’lum madaniy konseptlarni farqlovchi semantik belgilar tizimlashtiriladi. Biroq, shuni ta’kidlash lozimki, aynan lingvomadaniyatshunoslikda konsept mohiyatini tushunish bo‘yicha eng ko‘p kelishmovchiliklar yuzaga keladi. Bu o‘z navbatida “madaniyat” atamasining noaniqligi natijasi bo‘lishi mumkin [18: 13–17; 16: 12–18]. Madaniyatga millatga oid bo‘lgan barcha narsani, artefaktlarni bog‘lash mumkin (tabiatdan tashqari), natijada ba’zan “madaniy bo‘lmagan” biror konsept yo‘q degan xulosaga kelinadi. Ammo bu fikr lingvomadaniyatshunoslikni alohida fan darajasida ajratishga gumon tug‘ilishiga olib kelishi mumkin.

Amalda, madaniy konsept – ko‘p o‘lchovli mental hosila [15: 18; 18: 41; 10: 80; 11: 129] degan fikr umumqabul qilingan bo‘lib, ushbu hosilada bir-biridan sifat jihatdan farq qilinuvchi bir necha qatlam mavjud. Konseptni tashkil qiluvchi semantik komponentlarning xususiyatlari va sifati jihatidan farqlar mavjudligi sabab turli yondashuvlar paydo bo‘lmoqda. Jumladan ba’zi tadqiqotchilar konseptning “diskret yaxlitligi” “tushuncha”, “obraz”, va “harakat”ning o‘zaro aloqasi natijasida hosil bo‘ladi deb hisoblasa [15: 18] boshqalari konseptning ikki tomonini, ya’ni mazmun va uni “madaniyat obyekti qiluvchi barcha narsalarni” – (etimologiyasi, zamonaviy tasavvurlar va baxolashlar) farqlashga harakat qiladilar [18: 41]. S. Vorkachev “konseptning belgisini va ifodasini aks ettiruvchi ma’no tarkibi, lisoniy ongda konseptni mavjudligini asoslab turuvchi kognitiv metaforalarni bildiruvchi obrazli hamda uning lisoniy tizimdagi o‘rnini aniqlashtiruvchi muximlilik tarkiblarini farqlash lozimligini ta’kidlaydi [10: 80]. Madaniy konseptning ko‘p o‘lchovli ekanligi uning murakkabligi, ichki tarqoqligi bilan izohlanadi.

Har qanday qiyosiy tadqiqot kabi konseptlarning o‘rganilishi obyektning har



xil tushuniluvchi etnomadaniy xususiyatini aniqlashtirish - farqli, tafovutli jihatlarini aniqlashga qaratilgan. Etnomadaniy xususiyat deganda, nominativ asosda yotadigan ichki shakl tushinilib, uning amalga tadqib qilinishida ko‘p martalik, ommaviylik nazarda tutiladi [11: 149]. Muayyan millatga xoslik konsept semantikasida aks etuvchi dunyoqarashning va xulq-atvorning modellarida namoyon bo‘ladi. Konseptning ma’lum millatga xoslik xususiyati tillararo qiyoslanayotgan kontekstda uni milliy metalitet birligi sifatida tahlil qilishga asos bo‘lib, muayyan millatning milliy xarakterini ochib beradi.

Madaniy konseptlarning universal va idioetnik turlarga bo‘linishi [8: 291–293; 6: 259–261] shartli hisoblanadi, chunki idioetnik xususiyat universal konseptlarda ham mavjud bo‘lib, ular bir biridan lisoniy idrok va semantik tizim asosida farqlanadi.

Konsept semantikasida uning mazmunini aniqlab beruvchi uning negizida turuvchi birgina ma’no bo‘ladi. Uning mazmun mohiyatini odatiy tasvirlash, ya’ni, farqlovchi belgilarini sanab o‘tish orqali bo‘lmaydi, bunday hollarda uni apofatik – inkor orqali talqin qiladilar [18: 76; 12: 64]. Madaniy konseptning ma’no tarkibini bir necha turdagi semantik belgilar tashkil qiladi: biron bir konseptni unga turdosh bo‘lgan konseptlardan farqlovchi belgilar; konseptni shakllantiruvchi konseptual–mazmuniy belgilar; tavsiflarda namoyon bo‘luvchi implikativ belgilar; ensiklopedik belgilar [9: 49–50].

Madaniy konsept semantikasi asosida tizimli aloqalarga ega yoki obrazli-metaforik konnotasiya shaklidagi tasavvuriy/assasiativ komponent turadi.

Obrazli komponentni (prototip, geshtaldt, stereotip, ramz, odatiy tasavvur va h.k.) konsept tarkibiga kiritish [9: 54–57] konseptni ko‘rgzmalilik, yorqinlikdan xoli bo‘lgan tushunchadan farqlashning eng qulay usulidir. Bundan tashqari, konseptni so‘z orqali ifoda qilinishi uni obrazli tarkibini ramziy tarkibgacha o‘zgartirib borishi mumkin [12: 107].

Lingvomadaniy konseptning o‘ziga xos xususiyatini uning presendent o‘ziga xosligini bildiruvchi, ya’ni, etnomadaniy jamoa a’zolarining barchasiga ma’lum



bo‘lgan verbal, ramziy yoki vaziyatga aloqador hodisalar bilan assosiasiyalanuvchi “vertikal kontekstga” kiritilganligi xam tashkil qiladi [17: 27-31].

Madaniy konseptning statistik taxlilini amalga oshirishiga imkoniyat tug‘diradigan xususiyati bu uning tilda bir yoki bir necha vositalar orqali voqelanishidir, lingvomadaniy jamoadagi muayyan konseptning mazmunida aks etuvchi qadriyatlar tizimidir [11: 139]. Madaniy konseptning yana bir relevantlik xususiyati sifatida uning “his qilinishini” [18: 41] keltirish mumkin, ya’ni, idrok qilina boshlangan konsept insonning ma’naviy hayotini faollashtira boshlaydi.

Lingvomadniy konseptning ifoda vositalariga kiruvchi sinonimlar, qo‘llanilishi chastotasiga va xususiyatlarga qarab tasniflanadi. Semantik guruhlarning ichida trli ma’noga ega konseptlar ajratib olinishi mumkin. Lingvomadaniyatshunoslik uchun o‘zgacha qiziqishni semantik jixatdan bir-birini takrorlaydigan “baxt – saodat”, “mehr – muhabbat”, “erk – erkinlik”, “or – nomus” va h.k. kabi juftli konseptlar tashkil qiladi. Mazkur jaftli konseptlarda ma’lum millatga oid xususiyat ikki konseptning birida mujassam bo‘ladi.

Lingvomadaniy konseptlar tipologiyasi asosida mavhumlashuv darajasi yotadi: tabiiy realiyalar konseptlarga hech qachon nom bermasa ham, ma’lum madaniyatga xos bo‘lgan artefaktlar nomlari konsept darajasigacha ko‘tarilishi mumkin, ya’ni madaniy konseptning ramziy belgsi bo‘lishi mumkin [11: 145].

Shuning bilan birgalikda, mental hodisa bo‘lgan konseptlarda milliy ruh, dunyoqarash o‘z o‘rnini topishi sababli, ularning ma’naviylik, individuallik, jamoviylikka hamda milliy ong egasiga asoslanganligini inkor etib bo‘lmaydi.

Tadqiqot birliklari sifatida realiyalar, ya’ni obyektiv ravishda faqat shu etno-madaniy jamoaga xos bo‘lgan birliklar jalb qilinadi, ya’ni (kiyim-kechak nomlari, binolar nomlari, oziq-ovqat nomlari, marosimlar nomlari va boshqalar), lakunalar, ya’ni voqelikning “bo‘shliqlari”, muayyan belgilarning mavjud emasligi, odatda, ma’lum milliy madaniyat haqida ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lishni turtki beradi.

Madaniyat bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan yo‘nalishlarda milliy mentalitet muammosi ustuvor. Mentalitetni uzoq davr mobaynida shakllanuvchi, murakkab

hodisa sifatida baxolovchi etnosemiotika ham bundan mustasno emas, chunki til sohiblarining hayoti avloddan-avlodga ham ijtimoiy, ham intellektual nuqtai-nazardan o‘zgartiradi. Til belgilari, o‘z navbatida, madaniy an’analar kontekstidan kelib chiqqan holda xalqning dunyoqarashi va dunyoni tushunishini ifodalaydi. Etnosemiotikani o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega, chunki u til sohiblari muloqotida tez-tez yuzaga keladigan anglashilmovchilik yoki tushunmovchilik muammosini, shuningdek, biron-bir lug‘at yoki tarjima darsligi tomonidan qayd etilmagan yashirin tushunchalarni yetarlicha yetkazishga intilayotgan tarjimonlar faoliyatida kuzatiladigan turli qiyinchiliklarni hal qilishga imkon beradi.

Xullas, lingvokulturologiyada til tizimi madaniy hodisa sifatida talqin qilinib, milliy madaniyat vakiliga va uning lisoniy qobiliyatiga alohida e’tibor qaratiladi. Til va madaniyatning o‘zaro munosabatlari orqali shakllangan, lisoniy belgilarning madaniy semantikasi jiddiy tadqiqlarni talab qiladi. V.I. Karasikning fikricha, milliy til tarkibiga millatning o‘ziga xos tajribasini ifodalovchi va faqat shu millat tomonidangina idrok etiluvchi lisoniy birliklar, realiyalar, keng tarqalgan allyuziyalar, presendent matnlar, xissiy-baholovchi ma’noli so‘zlar qatorida, butun insoniyat uchun umumiy bo‘lgan so‘z va iboralar kiradi [11: 126]. Biroq til so‘z boyligining aksariyati lug‘atning milliy-o‘ziga xos va umumbashariy qismlari o‘rtasida oraliq mavqeni egallaydi, chunki uning madaniy o‘ziga xos xususiyatlari har doim ham oshkora ifodalanmasdan, ular maxsus izohli kontekstda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Khaydarova Shakhlo, Khalimova Firuza. 2023. Specific qualities of the literary concepts. *IQRO*. 2, 2 (Apr. 2023), 911–917.

2. Shamahmudova Aziza Furkatovna, Bakhramova Dilovar Gazanfarovna. (2022) Verbal politeness as a strategy of approach. Journal of Positive School Psychology, Vol. 6, No. 5, 1593 – 1599, http://journalppw.com (http://journalppw.com/).

3. Shamahmudova Aziza Furkatovna, Shakirova Nodirabegim Shayxnurovna. (2022) Intercultural analysis of politeness strategies in uzbek and spanish languages. Journal of Positive School Psychology. Vol. 6, No. 4, 4088 – 4094, http://journalppw.com (http://journalppw.com/).

4. Shokhrukhovna U. S. Cognitive Approach to Classification of Conceptual Metaphors //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 34-37.Xalimova F. Типология ху

5. дожественных концептов //Farg‘ona davlat universiteti ilmiy jurnali. – 2023. – №. 1. – С. 490-493.

6. Алефиренко Н.Ф. Поэтическая энергия слова. Синергетика языка, сознания и культуры. – М.: Academia, 2002. – 394 с.

7. Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж: Изд-во Воронеж. ун-та, 1996. – 103 с.

8. Вежбицкая А. Семантические универсалии и описание языков. – М.: Язык русской культуры, 1999. – 780 с.

9. Воркачев С.Г. Лингвокультурологпя, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. 2001. №1. – С. 64-72.Воркачев С.Г. Счастье как

10. концепт. – М.: ИТДГК «Гнозис», 2004. – 192 с.

11. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: «Перемена», 2002. – 477 с.

12. Колесов В.В. Язык и менталитет. – СПб: Петербург Востоковедение, 2002. – С. 402.

13. Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. – М., 2002. – 184 с.

14. Краткий словарь когнитивных терминов (КСКТ)/ Под общ. ред. Е.С. Кубряковой. – М., 1996. – 248 с. Ляпин С.Х. Концептология: к становлению подхода // Концепты/Научные труды Центроконцепта. – Архангельск: Изд-во Поморского госуниверситета, 1997. Вып.1. – С. 11—35.



15. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – 208с.

16. Слышкин Г.Г. К проблеме составления лингвокультурологического кон- цептуария // Языковая личность: проблемы когниции и коммуникации. – Волгоград: «Колледж», 2001. – С. 27-31.

17. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1997. – 824 с.

18. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Наука, 1996. – 284 с.